

OQ AMUR (*CTENOPHARYNGODON IDELLA*) BALIG‘INING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ummatova Muxayyo Egamberdiyevna

Navoiy davlat universiteti dotsenti, b.f.f.d.(PhD)

To‘xsanov Shaxboz A‘lam o‘g‘li

Navoiy davlat universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

ANNOTATSIYA

Oq amur (Ctenopharyngodon idella) – karpsimonlar oilasining bir turi. Oq amur 1960- 1961- yillarda Xitoydan keltirilib, O‘zbekiston hovuz baliqchiligi sharoitiga introduksiya qilingan va Amudaryoni havzasida iqlimlashtirilgan. Yirik, tez o‘sadigan baliq. Tanasi torpedo sifat va cho‘zinsoq bo‘lib yirik tangachalar bilan qoplangan. Oq amur - yuksak suv o‘simliklari bilan oziqlanadi. Oq amur bizning sharoitda, asosan, 4-5 yoshida jinsiy voyaga yetadi.

Kalit so‘zlar: karpsimonlar, oq amur, introduksiya, intensiv, yarim intensiv, yuksak o‘simliklar, zooplankton.

АННОТАЦИЯ

Белый амур (Ctenopharyngodon idella) — вид семейства карповых. Белый амур был завезён из Китая в 1960–1961 годах, интродуцирован в условия прудового рыболовства Узбекистана и акклиматизирован в бассейне Амударьи. Это крупная, быстрорастущая рыба. Тело торпедообразное, удлинённое, покрыто крупной чешуей. Питается высшими водными растениями. В наших условиях белый амур достигает половой зрелости преимущественно в возрасте 4–5 лет.

Ключевые слова: карповые, белый амур, интродукция, интенсивный, полунтенсивный, высшие растения, зоопланктон.

ABSTRACT

The white amur (Ctenopharyngodon idella) is a species of the cyprinid family. The white amur was brought from China in 1960-1961, introduced to the conditions of pond fisheries in Uzbekistan and acclimatized in the Amu Darya basin. It is a large, fast-growing fish. Its body is torpedo-shaped and elongated, covered with large scales. The white amur feeds on higher aquatic plants. In our conditions, the white amur reaches sexual maturity mainly at the age of 4-5 years.

Keywords: cyprinids, white amur, introduction, intensive, semi-intensive, higher plants, zooplankton.

KIRISH

Baliq inson hayoti uchun katta ahamiyatga ega. U zaruriy oqsil manbasi hisoblanadi. Inson qadim zamondan o'z ozuqasi sifatida iste'mol qilib kelmoqda. Baliq va baliq maqsuloti kimyoviy tarkibi, ta'mi jihatidan mol yoki qo'y go'shtidan qolishmaydi, ammo hazm bo'lishi jihatidan undan ustun turadi. Toza baliq va mahsulotida 15-22 % oqsil, 0,2 dan 30,8 % gacha yog' va oz miqdorda uglevod bo'ladi. Hozirgi zamon baliqchilik sanoatida baliqning barcha qismlari – go'shti, yog'i, uvildirig'i(ikrasi), terisi, tangachalari, hattoki suyaklari ham ishlatiladi. Iste'molchilarga toza baliq muzlatilgan, konservalangan, tuzlangan, tuzlangan, dudlangan shaklda yetkazib berilmoqda. Baliq go'shtining 1 kgida 1200 – 1400 kkal energiya mavjud[4].

Jahonda suv zahiralardan samarali foydalanish uchun yaylov akvakulturasining asosiy ob'yekti sifatida karp (*Cyprinus carpio L.*) va uzoq sharq o'txo'r karpsimon baliqlaridan oq amur va chipor do'ngpeshona, shuningdek, bir qator telyapiya va boshqa tropik baliq turlaridan foydalaniladi.

Oq amur va chipor do'ngpeshona jahon akvakulturasining eng muhim turlari bo'lib eng ko'p yetishtiriladigan baliqlar ro'yxatiga kiritilgan. Uzoq Sharq (Xitoy) o'simlikxo'r baliqlari deb nomlanadigan bu turlar lichinkasi 1960- 1961- yillarda Xitoydan keltirilib, O'zbekiston hovuz baliqchiligi sharoitiga introduksiya qilingan va Amudaryoni havzasida iqlimlashtirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Oq amur (*Ctenopharyngodon idella*) – karpsimonlar oilasining bir turi. Tabiiy tarqalgan joylari Amur daryosi, uning irmoqlari va Xitoyning chuchuk suvli daryolaridir.

Oq amur yirik, tez o'sadigan baliq. Tanasi torpedo sifat va cho'zinchoq bo'lib yirik tangachalar bilan qoplangan. Tabiiy xavzalarda uzuligi 1m ga yetadi og'irligi 30 kg va undan ortiq bo'ladi. Bu baliq yuqori sifatli, yog'li va ta'mli go'shti bilan ajralib turadi. Oq amurning muhim ijobiy xususiyatlaridan biri o'simliklarga talabi yuqoriligidir.

Oq amur - yuksak suv o'simliklari bilan oziqlanadi. Shu bilan birga, u ochko'z va tez o'sadi. Shundan kelib chiqqan holda, hovuz baliqchiligi obyekti sifatida, sug'orish kanallarini o't bosishidan himoya qiladigan biomeliorator (hatto, mo'tadil iqlim zonasining janubida ham suv o'simliklarining ko'payib ketishi irrigatsion va drenaj kanallarning normal faoliyat yuritishini keskin va tez buzadi) sifatida qiziqish o'yg'otadi. Shuning uchun ushbu tur juda keng tarqalgan. Uni Janubi-Sharqiy, Markaziy, G'arbiy Osiyo va Okeaniya (Afg'oniston, Bangladesh, Birma, Kambodja, Gonkong, Hindiston, Eron, Iroq, Yaponiya, Koreya, Malayziya, Nepal, Pokiston,

Filippin, Singapur, Shri Lanka, Laos, Sumatra, Tayvan va boshqalar), yaqin Sharq mamlakatlaridan (Isroil, Livan), shimoliy va janubiy Afrika (Misr, Efiopiya, Keniya, Nigeriya, Janubiy Afrika), Yevropa mamlakatlaridan (Avstriya, Daniya, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Germaniya, Polsha, Ruminiya, Italiya, Vengriya, Bolgariya, Shvetsiya), Shimoliy, Markaziy va Janubiy Amerika mamlakatlaridan (Argentina, Meksika, Panama, Yava, AQSH Kanada, Kuba) mamlakatlariga introduksiya qilingan [3]. Oq amur sobiq ittifoq respublikalaridan O'rta Osiyo, Qozog'iston, Kavkaz Respublikalari, Rossiya, Ukraina, Moldaviya, Belorussiya va boshqa respublikalarda keng tarqalgan.

Jahon akvakulturasida oq amur hatto oq do'ngpeshonaga nisbatan katta miqyosda yetishtiriladi. U aholi orasida ozuqa mahsuloti sifatida ommabop, u birinchi yildan tez o'sadi. Jahonda oq amurni yarim intensiv va hatto intensiv tizimda granulanigan yemlar bilan yetishtirish texnologiyasi mavjud.

Oq amur – pelagofil baliq bo'lib, ikrasini suv qatlamiga tashlaydi. Ikasi tezda shishadi va hajmi kattalashadi. Bu uning suzuvchanligini oshiradi. Urchishi daryolar oqimida sodir bo'ladi. Ikralari suv oqimi bilan oqadi va turg'un suvlarga yetgunga qadar lichinka, chavoq holatigacha rivojlanadi. Agar ular bunday joylarga erta tushib qolsa, unda ikra, lichinka halok bo'ladi. Shuning uchun ham urchishi faqat oqim va yetarli darajada uzun bo'lgan oqish joyi bo'lgan yirik daryolarda bo'lishi mumkin.

TADQIQOT NATIJALARI

Tabiiy sharoitda amurlar eng chuqur joyda yotadi. Daryo irmoqlarida urchaydi. Urchish uchun daryoning yuqorisiga qarab suzadi. Bu harakat may oyi oxirida, suv harorati 17-18°C ga yetganda boshlanib, avgustning yarmiga qadar — suv harorati 26—30° C ga ko'tarilguncha davom etadi. Mayda baliqlar ikralarini suvning yuqori qatlamlariga, toshlar ustiga bo'lib-bo'lib joylashtiradilar. Erkak baliqlar tomonidan urug'lantirilgan ikralar suv ostida ilingan holatda turarkan, 32-40 soat davomida 27—29° C haroratdagi suvda rivojlanib boradi va ushbu muddat tugagach uvuldiriqdan lichinkalar yorib chiqadi. Oltinchi kuni ularning oqsil xaltasi so'rilib tugatiladi va o'sib qolgan amur lichinkalari qirg'oqqa yaqin joylarga kelishadi. 15-kundan boshlab ular planktonlar bilan oziqlanishni boshlaydilar. 1 oylikdayoq 2,5 sm ga o'sgan oq amurlar o'simliklar bilan oziqlanishga o'tadi. To'rtinchi yil ga kelib, 3,5 kg dan kam bo'lmagan ba'zi turdagi baliqlar jinsiy yetuklik davrini boshlaydilar. Urg'ochi baliqlar yuz mingdan 816 mingtagacha uvuldiriq qo'yishi mumkin. Oq amurlar ancha tez o'sadi — bir yillik baliq vazni 0,6 kg ni tashkil etsa, ikki yilda 2,5 kg gacha yetadi.

Oq amur vatanida 7-10 yoshda jinsiy voyaga yetsa, bizning sharoitda, asosan, 4-5 yoshida bo'yi 55-65 sm (dumsiz) va og'irligi 3,5 – 4 kg ni tashkil etadi erkaklari bir yil ertaroq yetiladi. Odatda nasl berishda besh yoshan oshganlaridan foydalaniladi.

Ancha serpusht tabiiy havzalarda uvildiriqlari 2mln ga yetadi, sun'iy hovuzlarda 1mln dan ortiq bo'ladi. Me'yoriy mahsuldorligi -500 ming uvildiriqdan iborat[2].

Tollimarjon suv omborida o'lchamlari katta uzunligi 67-87,3 sm og'irligi 6-10 kg keladigan oq amurlarni ko'plab uchratish mumkin. Oq amur tez o'suvchi baliq bo'lib, Sirdaryo suv havzalarida og'irligi 45 kg gacha boradi.

O'zbekistonda, Sirdaryoning o'rta oqimida urg'ochilari – 3-4 yoshda, tansining uzunligi – 67-90 smga va og'irligi – 5-11 kg jinsiy voyaga yetadi va baliqlar mutlaq serpushtligi – 13-2400 ming ikrani, nisbiy serpushtligi – 125-128 ikr/g, jinsiy yetilish koeffitsiyenti – 3-22% tashkil qiladi[5]. Zarafshon daryosi quyi oqimi suv havzalarida oq amurning urg'ochilari tanasining uzunligi 67 sm bo'lganda mutlaq serpushtligi 950 ming dona ekanligini A.A.Amanov hammualliflari bilan (1990) qayd etgan[1].

XULOSA

Oq amur lichinkalari dastlabki ikki hafta davomida zooplankton bilan oziqlanadi, bu baliq yuqori suv o'simliklari bilan oziqlanib, kanal va kollektorlarni suv o'tlaridan tozalashda biomeliorator rolini ham bajaradi. Oq amur yuqori o'simliklar bilan oziqlanadi, zovurdagi o'tlarni iste'mol qiladi. O'simliklarning qoldiqlari, ifloslanishdan saqlashga yordam beradi. Shu sababli oq amurni baliqchilik xo'jaliklarida ko'paytirishda katta natijalar bermoqda.

REFERENCES

1. Аманов А.А., Холматов Н.М., Сибирцева Л.К. Акклиматизированные рыбы водоемов Узбекистана. Ташкент: Фан, 1990. - 115 с.
2. Ro'ziyev Sh.M., Jumaboyev B.Ye., Tugalov B.A., Tagayev E.S. "Navoiy viloyati suv havzalarida baliqchilikni rivojlantirish" Navoiy "Navoiy poligraf servis" 2010 y.
3. Schulz R.W., De França, L.R., Lareyre, J.J., LeGac, F., Chiarini-Garcia, H., Nobrega, R.H., Miura, T. Spermatogenesis in fish. - Gen. Comp. Endocrinol., 2010, 165, 3. – pp. 390–411.
4. Хужжиев, С., Бахрамов, И. З., & Сайфуллаев, А. Ф. (2022). ФИТОРЕМЕДИАЦИЯ ПОЧВ, ЗАГРЯЗНЁННЫХ ТЯЖЁЛЫМИ МЕТАЛЛАМИ. ЭКОЛОГИЯ (БИОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ).
5. Shomurodov, H. F., Saribaeva, S. U., Abduraimov, O. S., Khayitov, R. S., & Sayfullaev, A. F. (2021). The Current State of Iris Hippolyti's (Vved.) Kamelin Population in Uzbekistan. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 6589-6597.

6. Sayfullayev, A. F. O. (2023). SHAHARLARNI KO'KALAMZORLASHTIRISHDA KATALPA DARAXTINING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4-2), 77-82.
7. Sayfullayev, A. F. O. G. L. (2025). QORA TUT "PENDULA" NIMAGA O'XSHAYDI VA QANDAY O'SADI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(2), 227-231.
8. Ummatova, M. E., Baxodirova, U. B., Norova, D. X. (2024). KARP (CYPRINUS CARPIO L.) BALIG'INING YAYLOV AKVAKULTURASI SHAROITIDAGI BIOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar*, 4 (6), 285-289.
9. Ummatova, M. E., Yusupov, D. F. O., Umarov, H. L. O. (2023). KAMALAK GULBALIQ-(ONCORHYNCHUS MYKISS) NING AKVAKULTURA OB'YEKTI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI. *Sharq uyg'onishi: innovatsion, ta'lim, tabiiy va ijtimoiy fanlar*, 3 (4-2), 113-117.
10. Khalimova, N. T., Kanatbaeva, T. S., Ummatova, M. E., Yuldashov, M. A., & Kamilov, B. G. (2023, March). Morphological characteristics of carp (Carassius Gibelio) in the conditions of pond fish farming in Uzbekistan. In *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science* (Vol. 1142, No. 1, p. 012072). IOP Publishing.
11. Hakimova, R., Yuldashov, M., Kamilov, B., & Ummatova, M. E. (2023). Morphology, age and growth of prussian carp (Carassius gibelio) in tudakul reservoir in Uzbekistan. *Acad. Sci. Repos*, 4(5), 74-81.
12. Jumaboyev, B., TS, K. T. K., ME, U. M. U., & AJ, B. A. B. (2024). TO 'DAKO 'L SUV OMBORIDAGI OQ DO 'NGPESHONA (Hypothalmichthys molitrix) BALIG'INING MORFOLOGIK BELGILARI. *Actual problems and prospects of the study of the fauna*, 1(01).